



UDK: 420=943.75:413.18(045)

Zamira SHUKUROVA

Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi

Qarshi DU dotsenti v/b M.Omonova taqrizi asosida

TRANSLATION OF PROVERBS AND SAYINGS INVOLVING THE NAMES OF BODY PARTS IN UZBEK AND ENGLISH LINGUISTICS

Annotation

This article reveals the role of proverbs, sayings in phraseology and especially translation. A comparative analysis of bilingual phraseological units with names of body parts in Uzbek and English is carried out.

Key words: proverb, saying, idiom, wisdom, saying, parable, comparative analysis of phraseology.

ПЕРЕВОД ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК С УЧАСТИЕМ НАЗВАНИЙ ЧАСТЕЙ ТЕЛА В УЗБЕКСКОЙ И АНГЛИЙСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В данной статье раскрывается роль пословицы, поговорки во фразеологии и в особенности перевода. Проведен сравнительный анализ двуязычных фразеологизмов с названиями частей тела на узбекском и английском языках.

Ключевые слова: пословица, поговорка, идиома, мудрость, поговорка, притча, сравнительный анализ фразеологии.

O'ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA TANA A'ZOLARINING NOMLARI ISHTIROK ETGAN MAQOL VA HIKMATLARNING TARJIMASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maqol, matalning frazeologiyada tutgan o'рни va tarjima xususiyatlari ochib berilgan. O'zbek va ingliz tilida tana a'zolarining nomlari ishtirok etgan frazeologizmlarni ikki tilda qiyosiy tahlili olib borilgan.

Kalit so'zlar: Maqol, matal, idiom, hikmat, naql, masal, qiyosiy tahlil frazeologiya.

Kirish. Adabiyotshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, hech bir xalq adabiyotni boshqa adabiyotlardan ajartib olib, alohida o'rganish mumkin emas. Maqol, matal va hikmatlarni tarjima qilishda tarjimon oldida turgan muammolardan biri shuki, u tarjima qilayotgan maqol tegishli bo'lgan xalqning urf-odati, madaniyati, tarixi bilan tanish bo'lishi kerak. Maqol, matal, hikmatli so'zlar va idiomatik ta'birlarni tarjima qilish qiyin ish, chunki ular har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Bunday xususiyatlarni boshqa til vositalari bilan ifodalash oson emas albatta, maqol va matallar til xazinasidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maqol so'zining lug'aviy ma'nosi o'ta donolik, aql-zakovat bilan oqilona aytilgan muhlat qo'yiladigan, o'zgartirib bo'lmaydigan chuqur ma'noli gap demakdir.

Frazeologizmlarni tarjima qilish masalasi keyingi yillarda tarjima-nazariyasiga doir bir qancha asarlarda ancha mukammal ishlandi. Chunonchi, G.Salomov o'zining "Maqol va idiomalar tarjimasi" nomli kitobida hamda shu mavzuda yozilgan dissertatsiya ishida maqol va idiomalarga ta'rif bergan ularning bir-biridan farq qiluvchi tomonlarini ko'rsatgan, hamda o'zbekchaga o'g'irish prinsiplarini ishlab chiqqan.

Ta'riflarga yana e'tibor berar ekanmiz, xorijiy tilshunos Miderning ham fikrini o'rgandik. U quyidagi fikrlarni bildiradi: Maqollar asl haqiqatning qisqa shakli bo'lib, u xalq orasida keng tarqalgandir. U avlodlardan avlodga, qo'llardan qo'llarga o'tib keladigan, unutilmas, o'z ichiga milliy dunyoqarashni, donishmandlikni, ma'naviyatni qamrab oladigan qisqa, barcha uchun tanish bo'lgan gaplardir."

"Matal" so'zi turkiy xalqlar orasida turlicha ma'nolarda qo'llanadi. U topishmoq, hikmatli so'z, ertak,

masal umuman hikoya qilish, naql qilish, hikmat aytish ma'nolarida ishlatiladi. U termin sifatida o'zbek folklorshunosligida paremiyamalarning bir turini ifodalash jihatdan differensiyalashib bormoqda. Jumladan, "O'zbek tilining izohli lig'ati"da bu atama arab tilidan ilingani va ikki ma'nosi borligi ko'rsatiladi. Lug'atda berilishicha, matal "tugal ma'no ifodalamaydigan obrozli ibora, hikmatli so'z"dan iborat.

Maqol va uning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi va uning mataldan farqli jihatlarini ko'rsatishda A.Musoqulov, B.Sarimsoqov, T.Mirzaevlarning fikrlari diqqatga sazovordir." Maqol mustaqil folklor janr sifatida qator o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, bu xususiyatlar uni boshqa aforistik janrlardan, xususan matallardan keskin farqlab turadi."

Maqol xalq orasida kun sayin tug'ilib turganidek, ota bobolar so'zi sifatida avlodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tadi. Bu merosni xalq juda ehtiyot bilan ko'z qorachig'idek saqlaydi. Xalq maqoli har bir kishi amal qilishi lozim bo'lgan axloqiy qoidalarning o'ziga xos kodeksidir. Har bir maqol ham ma'no, ham shakl, ham stilistik funksiyasi jihatidan o'ziga xos xususiyatga ega. Lekin shunga qaramay hamma maqollarda xalq hikmati yotadi. Maqol turmushda sinalganda ma'lum ezgu tugal umumiy ma'no anglatuvchi ixcham bir shakldagi xalq hikmatidir.

Maqollar biz uchun asrning sadosi uzoq o'tmish bilan hamnafaslik hissini uyg'otuvchi chaqiriq, zamonlararo ko'prikdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tillarning funksiyasini o'rgatishda xalq qanday narsalarni nomini qanday voqea hodisalarni timsoli sifatida qabul qilganligini aniqlash katta ahamiyatga ega. Dunyodagi juda ko'p xalqlar yaxshilik, yomonlik, yuvoshlik, saxiylik,

ayyorlik, vxshiylik, qo'pollik timsoli sifatida qabul qilinganligini aniqlash zarurdir.

Masalan: yomonlik, zararkunadalik timsoli - ilon, chayon, vahshiylik timsoli-bo'ri, yuvoshlik timsoli musicha, qo'y, mehnatsevarlik timsoli - chumoli va asalari; kattalik timsoli-fil; ayyorlik timsoli-tulki; qo'pollik timsoli-ayiq; befahmlik va befarosatlik timsoli-eshak, cho'chqa; tinchlik timsoli-kabutar; go'zallik timsoli-tovus; xushxonlik timsoli - bulbuldir.

Hamma xalqlar ham farosatsizlik, ayyorlik va qo'pollik timsoli sifatida ma'lum biz hayvon va parrandani belgilar ekan, bunda shubhasiz, o'sha hayvon va parrandaning xulqiga, tashqi ko'rinishga va hatti - harakatlariga asoslanadilar. Juda ko'p xalqlar ayyorlik, mug'ombirlik timsoli sifatida tulkini oladilar. Xalq nazarida tulki boshqa jonivorlarga qaraganda ancha aqlli va o'ta ayyor hayvondir. Chunonchi u turli afsonalarda qarg'ani aldaydi, bo'rini o'sal qiladi, itni ko'zini shamg'alat qiladi. Ba'zi hayvonlarni muqaddas bilish ularni ilohiy lashtirish obyekt shu hayvon yoki parrandalarning nomlaridan iborat maqol idiomalarning xarakteri ta'sir qiladi.

Maqol va idiomalarning shakl xususiyatlari to'g'risida gapirganda qisqagina qilib qisqa deyishning o'zgina kifoya qilmaydi.

Axir har qanday qisqa jumla ba'zan chuqur mazmunli har qanday qisqa jumla ham maqol, matal yoki idioma bo'lmaydi - ku.

O'zbek va ingliz tilshunosligida maqol va hikmatlarning semantik uslubiy tuzilishiga doir qator ishlar mavjud. Shunday ekan tana a'zolarining nomlaridan tuzilgan maqol va matallar har bir tilning frazeologiya boyligida katta o'rin ishg'ol qiladi.

Obyekti tana a'zolarining nomlaridan iborat frazeologizmlarni o'rganish ularning ekvivalent va muqobil variantlarini aniqlash, ikki til materiallari asosida ko'chma ma'no anglatish doirasi va normalarni belgilash frazeologiya, leksiologiya va xususan tarjima nazariyasi uchun katta ahamiyatda molikdir.

“qo'l, oyoq” so'zlaridan tashqari bosh, jon, bel, qo'l, bo'yn, o'pka, til, bilak, qorn, ko'z so'zlari ham juda ko'p frazeologizmlar uchun asos bo'lib keladi.

Masalan o'zbek tilida quyidagi maqollar, matallarni uchratishimiz mumkin:

- Ayrilmagin elingdan,
- Quvvat ketar belingdan.
- Eling senga cho'zsa qo'l,
- Unga doim sodiq bo'l.
- Erning ishi - elning bo'ynida,
- Elning ishi - erning bo'ynida.
- Yurtim - ko'ksim,
- Elim - iligim.
- O'pkadan urgan yel yomon,
- Elidan ayrilgan er yomon.
- Bir qo'llab eksang,
- Ikki qo'llab o'rasan.
- Ishlikning peshonasi terlar,
- Ihsizning - bo'yni.
- Ishning ko'zini bil,
- Erning - tilini.
- Mard yigitning labi yog'lik,
- Dangasaning boshi qonlik.
- Mehnatsiz bilak - o'rinsiz tilak.
- Mol boqqanning barmog'idan moy tomar.
- Erinchoqning qo'li yetmas,
- Qo'li yetsa ham, ishi bitmas.
- Qorning to'ysa, kekirma,

- Bekor yurib, bo'kirma.
- Ko'z qo'rqoq, qo'l botir.

Tana a'zolarining nomlaridan tuzilgan maqol va matallar har bir tilning frazeologiya boyligida katta o'rin ishg'ol qiladi.

Tana a'zolarining nomlari asosida tuzilgan maqol, matal va idiomalarni o'rganish, chet tilini egallash metodikasida ham muhimi o'rin tutadi. Chet tilidagi biron iborani olib, uni ona tilidagi muqobil variant bilan taqqoslash, ayniqsa, ularning obyektlarini bir-biriga qiyos qilish o'quvchilarda ona tili va chet tili iboralarining o'xshash, bir-biridan farq qiluvchi tomonlariga asoslangan muayyan assotsiatsiyalarning hosil bo'lishiga yordam beradi va natijada o'quvchilarning boshqa tildagi ko'chma ma'noli birikmalarning ma'nosini tezroq tushunib olishiga katta imkon yaratadi.

Masalan ingliz tilida quyidagi maqollar, matallarni uchratishimiz mumkin:

Masalan:

“The eyes are the mirror of the soul”

Ko'z ko'ngil darchasi

“Sleep with one eye open”

Xushyorni yov bosmas,

Yov bossa ham dov bosmas.

One eye for an eye and a tooth for a tooth.

O'chakishganda it qopmay qolmas.

Eat the bread of idleness

Bekorchinging beti yo'q

Qozon otsar eti yo'q

Bald heads are soon Shaven

Kalning nimasi bor - temiz tarog'i,

Ko'ring nimasi bor - eski tayog'i.

Adversity is a good discipline.

Bosh boshga tegsa, Aql boshqa kelar.

Absence Sharpens love, presence strengthens it.

Ko'z ko'zga tushsa, mehr dilga tushadi.

Absent is always in the wrong

O'zi yo'qning - ko'zi yo'q.

Ba'zan har ikki tilda obyekt, shakli va ma'nosi aynan to'g'ri keladigan, hatto ekvivalent bo'ladigan iboralarining etimologiyasi biri biridan jiddiy farq qiladi. Frazeologiya tarkibida o'rganilayotgan maqol, matal, idioma va hikmatli so'zlar alohida o'rganilishi lozim bo'lgan mavzulardir. Maqol so'zning ko'rki, nutqning o'tkir quroli, xalqning donishmandligidir.

Maqol xalqning pand-nasixati, ma'naviy-axloqiy xulosasi, xalq milliy ruhining aks-sadosi, til tabiatining hikmatli merosidir. Maqol chuqur ijtimoiy, axloqiy, falsafiy - hikmatona mazmunga ega. Maqol xalq aql-idrokining mahsuli, uning hukmi ko'p asrlik tajribalari majmuidir. Har bir maqol ham ma'no, ham shakl, ham stilistik funktsiya jihatidan o'ziga xos xususiyatga ega. Maqolda Vatanni sevish, mehnat qilib yashash g'oyalari ilgari suriladi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarning talaygina qismi faqat tarkibidagi ayrim so'zlarning ishlatilishi bilan farqlanadi.

Qisqasi maqol turmushda sinalgan, ma'lum ezgu tugal umumiy ma'no anglatuvchi ixcham bir shakldagi xalq hikmatidir. Uning boshqa frazeologik birliklardan farqi shuki, boshqa frazeologik birlikka gap tarkibiga kirib, uning bir bo'lagini tashkil etsa, maqolning o'zi butun gapni tashkil qiladi.

Tahlil va natijalar. Maqollar frazeologik birikmalarning alohida bir turilaridirki, bular “maqol frazeologizmalaridir”. Maqol - narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi tilda keng ishlatiladigan ibora va nutq iboralaridir. Matal so'zlovchining o'z nutqi

mazmuniga munosabatini ifodalaydi. Matal aytilmoqchi bo'lgan fikrni tugal bayon qilmay, balki unga ishora qiladi. Matal "u ahmoq odam" deyish o'rniga "uning bir qaynovi past" deydi, "ular bir biriga juda mos" deyish o'rniga – "ular bir olmaning ikki pallasi" deb aytadi. Maqol bilan matal o'rtasida umumiylik ko'zga tashlanadi.

Bu umumiylik shundan iboratki har ikkala kategoriya ham nutqni jonlantirish, jozibador va obrazli qilish, fikrni tayyor nutq qoliplari, formulalari bilan ifodalash, uni mazmundor qilishda ishlatiladi. Lekin shu bilan birga tugal fikrni o'zida ifodalagan maqollardan matallar jiddiy farq qiladi.

Idioma shaklan bo'laklarga ajralmaydigan maxrajli birikma tarkibidagi so'zlarning to'g'ri va konkret ma'nosi bilan talqin qilinmaydigan ko'chma ma'no anglatuvchi so'z birkmasidir. Bir tildagi idomatik iboralarni boshqa tilga birikma tarkibidagi so'zlarning to'g'ri ma'nosini tarjima qilsa ko'pincha tushunarli bo'lmaganiday xato aytishning o'zida ham ularni to'g'ri ma'noda talqin qilish, ya'ni idomatik birikmaning erkin so'z birikmasi deb talqin qilish tushunmovchiliklarga sabab bo'ladi.

Idiomatik ibora maqol bilan qiyos qilinsa uning o'ziga xos xususiyati ochiqroq ko'rinadi.

Maqol obrazli mazmunga ega bo'lgan gapdir. Uni sintaktik bo'laklarga ajratish mumkin. Biroq idioma barqaror leksik butunlik bo'lib, uni na semantik bo'laklarga ajratish mumkin. Tig' yarasi tuzalar, til yarasi tuzalmas maqolni sintaktik bo'lib uni tahlil qilaylik. Bunda ega va kesim mavjud bo'lgan ikkita gap bor.

Birinchi gap: tig'yarasi tuzalar

–til yarasi –ega, tuzalar- kesim.

Ikkinchi gap: til yarasi tuzalmas,

til yarasi-ega, tuzalmas- kesim.

Ammo tarvuzi qo'ltigidan tushdi-idiomasini bunday tahlil qilib bo'lmaydi. Yuzaki qaraganda: tarvuzi – ega, tushdi- kesim, qo'ltigidan-to'ldiruvchi, lekin bunday tahlil bema'nilikka olib keladi, chunki avvalo grammatik tahlil qilish uchun berilgan savollarning o'zi o'rinsiz bo'lib qoladi. Boshqacha aytganda idioma bo'laklarga ajralmaydigan yaxlit bir bo'lakdir. Idioma faqat ko'chma ma'noda ishlatiladigan yaxlit birikmadir.

Maqol bilan idioma ma'nosi shakl tomonidan bir biridan jiddiy farq qilsa ham ammo maqol bilan matal va idioma o'rtasida o'xshashliklar katta. Ko'pincha ularni bir biridan ajratish qiyin.

Xulosa va takliflar. Maqol bilan idioma ma'nosi shakl tomonidan bir biridan jiddiy farq qilsa ham ammo maqol bilan matal va idioma o'rtasida o'xshashliklar katta. Ko'pincha ularni bir biridan ajratish qiyin. Maqol va hikmatlarni o'zga tillarga to'g'ri keladigan muqobilini topa bilish, ularni tarjima qilayotganda Shakl va mazmun birligiga alohida ahamiyat berish. Tarjima jarayonida maqollarning milliyligini saqlab qolish va hokozalar tilshunoslikning oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Qisqasi maqol turmushda sinalgan, ma'lum ezgu tugal umumiy ma'no anglatuvchi ixcham bir shakldagi xalq hikmatidir. Uning boshqa frazeologik birliklardan farqi shuki, boshqa frazeologik birlikka gap tarkibiga kirib, uning bir bo'lagini tashkil etsa, maqolning o'zi butun gapni tashkil qiladi.

ADABIYOTLAR

1. G.Salomov .Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir. Toshkent 1961 y.
2. Shomaqsudov SH., Shorahmedov SH. Nega bunday deymiz. T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1988..
3. Hotamov N., Sarimsoqov B.. Adabiyotshunoslik terminlari ruscha-o'zbekcha lug'ati. T.: O'qituvchi, 1983 yil.
4. Toshpo'latov Ziyodulla. Aforizm adabiy janr sifatida. / O'zbek tili va adabiyoti. T.: 2004, 2-son. .
5. SH.Shomaqsudov va SH.Shorahmedov. Hikmatnoma. O'zbek ensiklopediyasi nashriyoti. Toshkent. 1990 yil. .
6. Vamberi G. Ocherki Sredney Azii. Moskva., 1968.
7. O'zbek xalq maqollari. Ikki tomlik. – Toshkent: Fan, 1987. 1-tom.
8. Rahmatullaev "O'zbek tilining frazeologik lug'ati". T.1992
9. Berdiyarov N, Rasulov R, Yo'ldoshev B, "O'zbek frazeologiyasidan materiallar".
10. Suyarova N.YU. Fundamentals of conceptual study of metaphorical meaning // International Journal for Advanced Research in Science and Technology // Research (IJARST), Vol-10, Issue -05 May 2020. – Page. 51-58. ISSN:2457-0362.
11. Atamurodova F.T. Utopian Views in different eras and its evolution. International Journal of Formal education.VOLUME 2, (12) 2023., p.100-104